




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



+998335668868

<https://innoworld.net>

Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



Volume 2 Issue 5 | 2025 |

+99894 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI**Fozil Xolmurotov**

Ma'mun Universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti,

Email: fozilholmurotov@gmail.com

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida eksport mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biriga aylangan. Eksport faqat valyuta manbai emas, balki mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi, ish o'rinlarini yaratuvchi va innovatsiyalarni joriy etishga turtki beruvchi kuchdir. Mintaqaviy iqtisodiyotda eksportning o'rni va ta'sirini tushunish mahalliy hokimiyat va tadbirkorlar uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu maqolada eksportni rivojlantirishning mintaqqa iqtisodiyotiga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'siri, shuningdek, bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari kompleks tahlil qilinadi.

Eksport mintaqqa iqtisodiyotiga ko'p qirrali va bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bo'lib, avvalo, valyuta tushumlarining ko'payishi orqali moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi. Tashqi bozorlardan keladigan qattiq valyuta mahalliy korxonalar uchun zamonaviy texnologiyalar, sifatli xom ashyo va yuqori samaradorlikka ega ishlab chiqarish jihozlarini import qilish imkonini yaratadi. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Eksport hajmining o'sishi mintaqqa byudjetiga tushadigan soliq tushumlarini ham sezilarli darajada ko'paytiradi; eksportchi korxonalar yuqori daromadga ega bo'lganlari sababli ko'proq soliqlar to'laydi[1]. Natijada mahalliy hokimiyat moliyaviy resurslar bazasini mustahkamlaydi va ijtimoiy dasturlarni kengaytirish, infratuzilmani yaxshilash hamda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kabi ustuvor yo'nalishlarga ko'proq mablag' yo'naltirish imkoniga ega bo'ladi.

Eksportning mintaqqa iqtisodiyotiga yana bir muhim ta'siri ishlab chiqarish hajmlarining jadal kengayishida namoyon bo'ladi. Xalqaro bozorlarning ichki bozorga nisbatan ancha katta bo'lishi mahalliy korxonalar uchun millionlab iste'molchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratadi va bu ishlab chiqarish ko'lamining keskin oshishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning kengayishi miqyos iqtisodiyoti effektini yuzaga keltiradi: yirik hajmda ishlab chiqarish birlik mahsulot tannarxining pasayishiga sabab bo'ladi, bu esa korxonalarga nafaqat tashqi bozorlarda, balki ichki bozorda ham raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi. Shu bilan birga, yuqori ishlab chiqarish quvvati korxonalarning avtomatlashtirilgan texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va zamonaviy uskunalarni joriy etishiga zamin yaratadi, natijada ishlab chiqarish jarayonining texnologik darajasi ko'tariladi.

Eksport faoliyati bandlik darajasining oshishiga va mehnat bozori rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Eksportga yo'naltirilgan korxonalar yangi ish o'rinlarini yaratishning eng muhim manbalaridan biri bo'lib, eksport

hajmining ortishi bilan ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytiradi va qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj kuchayadi. Empirik tadqiqotlar eksport sektorida yaratilgan har bir ish o'zni xizmat ko'rsatish sohasida yana ikki-uch baravar ko'proq ish o'zni paydo bo'lishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi, bu esa iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida multiplikativ ta'sirni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, eksportchi korxonalar odatda yuqori ish haqi taklif etadi, chunki xalqaro bozorlar orqali yuqori daromadga ega bo'lish ularga malakali kadrlarni jalb etish imkonini beradi. Natijada mintaqadagi o'rtacha daromad darajasi oshadi, aholining turmush sifati yaxshilanadi va ichki iste'mol kengayadi. Iste'molning oshishi esa o'z navbatida savdo, xizmat ko'rsatish, transport, logistika va boshqa ko'plab tarmoqlarda rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi[2].

Eksportning bilvosita iqtisodiy ta'siri mintaqada iqtisodiyotida keng qamrovli tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi va turli tarmoqlarning o'zaro integratsiyalashgan rivojlanishini ta'minlaydi. Eksport faoliyati atrofida shakllanadigan iqtisodiy ekotizim transport-logistika xizmatlari, qadoqlash sanoati, sug'urta va moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, konsalting kompaniyalari kabi ko'plab yordamchi faoliyat yo'nalishlarining jadal rivojlanishiga turtki bo'ladi. Eksportchi korxonalar o'z ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy xom ashyo, butlovchi qismlar va xizmat turlaridan keng foydalanishi tufayli, mintaqadagi kichik va o'rta biznes subyektlari ham o'z imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa mahalliy qiymat zanjirlari shakllanib, iqtisodiyotning ko'p qatlamli ichki integratsiyasi mustahkamlanadi.

Eksportning yana bir muhim bilvosita ta'siri texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Xalqaro bozorlarda raqobat kuchli bo'lgan sharoitda mahalliy korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda modernizatsiya qilishga, yangi mahsulotlar yaratishga va ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga mablag' yo'naltirishga majbur bo'ladi. Bu jarayon mintaqada texnologik markazlar va innovatsion klasterlarning shakllanishiga olib kelib, universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va biznes tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Innovatsion salohiyatning ortishi faqat eksport sektorining emas, balki butun mintaqada iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi[3].

Eksport faoliyati mintaqada mehnat bozorining rivojlanishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro bozorlarga chiqish yuqori malakaga ega kadrlarni talab qilgani bois, korxonalar xodimlarni sifat standartlari, xorijiy tillar, zamonaviy texnologiyalar va menejment tizimlari bo'yicha muntazam ravishda o'qitadi. Natijada mintaqada umumiy kadrlar salohiyati ortadi, xalqaro tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar shakllanadi va ular to'plagan bilimlar boshqa tarmoqlarga ham yoyiladi. Xodimlarning xalqaro biznes

jarayonlaridagi amaliy ko'nikmalarni egallashi mintaqaning institutsional salohiyatini kuchaytiradi.

Eksportning bilvosita ta'siri infratuzilma rivojlanishida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Tashqi bozorlarga samarali chiqish uchun zamonaviy avtomobil yo'llari, temir yo'l tarmoqlari, aeroportlar, logistika markazlari va terminal tizimlarining barpo etilishi zarur bo'ladi. Bu yo'nalishlarda davlat va xususiy sektor tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar mintaqaning transport va logistika imkoniyatlarini sezilarli ravishda kengaytiradi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi — yuqori tezlikdagi internet, elektron tijorat platformalari, raqamli to'lov tizimlari va onlayn logistika boshqaruvi — eksport salohiyatini oshirish bilan birga iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham katta o'sish imkoniyatlarini yaratadi. Shu tariqa eksport iqtisodiyotning umumiy modernizatsiyasini jadallashtiradi, mintaqani global iqtisodiy tizimga chuqur integratsiyalashuvga olib keladi[4].

Eksportning multiplikativ effekti mintqa iqtisodiyotida daromadlar oqimining kengayishi, investitsiyalar faollashuvi va iqtisodiy makonning tarkibiy jihatdan mustahkamlanishi orqali namoyon bo'ladi. Eksportdan olingan har bir so'm iqtisodiyotda bir necha marotaba aylanadi: eksportchi korxonalar xodimlariga ish haqi to'laydi, xodimlar esa mazkur daromadni mahalliy savdo, umumiy ovqatlanish, transport va turli xizmat ko'rsatish korxonalarida sarflaydilar. Ushbu korxonalar o'z navbatida qo'shimcha xodimlarni yollab, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar va bu orqali yangi iqtisodiy faollik manbalarini yaratadilar. Ilmiy tadqiqotlar eksport sektorida yaratilgan har bir dollar mintqa yalpi mahsulotining 1,5–2,5 baravariga teng o'sishni ta'minlashini ko'rsatmoqda; ushbu koeffitsient iqtisodiyotning tarmoqlararo tarkibiga, import o'rnini bosuvchi resurslar mavjudligiga va eksport mahsulotidagi mahalliy komponentlar ulushiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Eksport salohiyatining kuchayishi mintaqaga investitsiyalarni jalb etishda ham muhim rol o'ynaydi. Yuksalib borayotgan eksport hajmlari, barqaror iqtisodiy dinamika va tashqi bozorlarga integratsiya jarayonining chuqurlashuvi xorijiy va mahalliy investorlar uchun mintaqaning jozibadorligini oshiradi. Natijada yangi ishlab chiqarish maydonlari tashkil etiladi, mavjud korxonalar quvvatlarini kengaytiradi, turli sanoat tarmoqlarida modernizatsiya ishlari faollashadi. Investitsiya oqimi faqat sanoat bilan cheklanmay, xizmat ko'rsatish sohasi, turizm, ko'chmas mulk bozori va boshqa iqtisodiy yo'nalishlarda ham rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi. Bu jarayon mintqa iqtisodiyotining diversifikatsiyasini kuchaytiradi va uning o'sishini uzoq muddatli barqaror yo'lga yo'naltiradi[5].

Eksportning bilvosita ta'siri sifatida klasterlashuv jarayonining faollashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Eksportga yo'naltirilgan korxonalar atrofida bir xil yoki o'zaro bog'liq tarmoqlarda ishlaydigan korxonalar, ta'minotchilar, logistika markazlari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va ta'lim muassasalari to'planib, ixtisoslashgan iqtisodiy klasterlarni shakllantiradi. Bunday klasterlar korxonalar o'rtasida resurs almashinuvi, texnologik kooperatsiya va innovatsiyalarni tez

tarqalishini ta'minlab, sinergiya effektini kuchaytiradi va barcha ishtirokchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, mintaqada maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat parklarining rivojlanishi eksportchi korxonalar uchun yanada qulay sharoit yaratadi. Zamonaviy infratuzilma, soddalashtirilgan bojxona tartiblari, soliq imtiyozlari va logistika qulayliklari mavjud bo'lgan bunday hududlar iqtisodiy faollikning yangi markazlariga aylanib, mintaqa rivojlanishining kuchli drayveri sifatida namoyon bo'ladi.

Eksport diversifikatsiyasi mintaqa iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi, chunki eksport geografiyasi va mahsulot turlarining xilma-xilligi tashqi iqtisodiy zarbalarga nisbatan yuqori darajada himoya yaratadi. Agar mintaq faqat bitta bozor yoki bitta mahsulot turiga tayanib qolsa, unga global bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar, talabning qisqarishi yoki raqobatning kuchayishi jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Diversifikatsiyalangan eksport portfeli esa bunday xatarlarni kamaytiradi: bir yo'nalishda yuzaga keladigan muammolarni boshqa bozorlar yoki yangi mahsulot turlari qoplab berishi orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu, ayniqsa, global iqtisodiy inqirozlar, savdo nizolari yoki narxlarning keskin tebranishi davrida alohida ahamiyat kasb etadi.

Diversifikatsiya jarayoni mintaqaning yangi bozorlarni o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Har bir yangi bozor o'ziga xos talablar, texnik standartlar va iste'mol xususiyatlarini taklif etadi, bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion yechimlar ishlab chiqishiga, mahsulot assortimentini kengaytirishiga va sifatni oshirishga sabab bo'ladi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlari ham eksport imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi yoki boshqa mintaqaviy bloklar doirasida imzolangan preferensial savdo shartnomalari bojxona to'siqlarini kamaytirib, mahsulotlarni katta bozorga tez va arzon kirishiga yordam beradi.

Eksportning ijtimoiy ta'siri ham mintaq farovonligiga sezilarli hissa qo'shadi. Eksport hajmining oshishi yuqori ish haqi va barqaror bandlikni ta'minlash orqali aholining daromad darajasini sezilarli ravishda ko'taradi. Bu ayniqsa qishloq hududlari va rivojlanish darajasi past bo'lgan mintaqalar uchun katta ahamiyatga ega, chunki eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish korxonalari ko'pincha ana shu hududlarda joylashib, aholiga yangi daromad manbalari yaratadi. Daromadlarning oshishi qashshoqlikning qisqarishiga, aholining ta'lim, sog'liqni saqlash va turmush sifati bo'yicha imkoniyatlarini kengayishiga olib keladi. Ijtimoiy tengsizlik pasayib, o'rta sinfnining ulushi ortadi, bu esa mintaqaning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Eksportchi korxonalar mahalliy jamoalarning rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular korporativ ijtimoiy mas'uliyat doirasida maktablar, tibbiyot markazlari, sport inshootlari, madaniy va ijtimoiy obyektlarning qurilishiga homiylik qiladi. Bunday tashabbuslar mintaqada hayot sifatining yaxshilanishiga, jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligining ortishiga xizmat qiladi. Ko'plab yirik eksportchi korxonalar tomonidan joriy etiladigan xayriya dasturlari, stipendiya va grant loyihalari, kadrlar tayyorlash va qayta o'qitish tashabbuslari, ayniqsa

yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va ularning mintaqa doirasida faoliyat yuritish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Eksport sektori gender tengligini ta'minlashda ham sezilarli rol o'ynaydi. Yengil sanoat, oziq-ovqat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabi eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar ayollar mehnatini keng jalb qiladigan sohalar hisoblanadi. Ayollarning bu tarmoqlardagi faol ishtiroki ularning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi, oilaviy daromadning ko'payishiga hissa qo'shadi va jamiyatdagi mavqeining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Natijada, gender tengligi darajasi yaxshilanadi, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki kengayadi.

Eksport faoliyatining mintaqa iqtisodiyotiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari ham mavjud bo'lib, ular odatda resurslarning bir tomonlama yo'nalishi, tashqi bozorlarga haddan ziyod bog'liqlik, ekologik muammolar va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi kabi omillar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Eksportga ustuvor e'tibor berilganda, eng malakali kadrlar, investitsiyalar va texnologik resurslar tashqi bozorlarga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltiriladi, bu esa ichki bozorning ehtiyojlarini chetlab o'tishga olib kelishi mumkin. Korxonalar ko'proq daromad keltiruvchi eksport segmentlariga e'tibor qaratgani sari mahalliy iste'molchilar uchun mo'ljallangan mahsulotlarning sifati va assortimentida qisqarish yuz beradi; ichki bozor ko'pincha past sifatli, kam diversifikatsiyalangan mahsulotlar bilan cheklanib qoladi. Bu holat ichki talabning qondirilmassligiga, iste'molchilar farovonligining pasayishiga va mahalliy bozorda raqobat muhitining susayishiga olib kelishi mumkin.

Eksportning yuqori ulushi mintaqani global iqtisodiy tebranishlarga nisbatan sezgir qiladi. Jahon bozoridagi talabning pasayishi, xalqaro savdo to'siqlari, valyuta kurslarining keskin o'zgarishi yoki geoiqtisodiy beqarorlik mintaqa iqtisodiyotiga bevosita zarba berishi mumkin. Tarixiy tajriba ham buni tasdiqlaydi: 2008–2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz va 2020 yil pandemiyasi eksportga yuqori darajada tayanadigan mintaqalarning zaifligini ochiq ko'rsatdi. Buyurtmalar keskin kamaygan davrda ko'plab korxonalar ishlab chiqarishni qisqartirish, xodimlarni ishdan bo'shatish yoki butunlay yopilish qaroriga duch keldi; bu esa iqtisodiy faollikning pasayishiga va ijtimoiy muammolar kuchayishiga olib keldi.

Ekologik muammolar eksport faoliyati bilan bog'liq salbiy ta'sirlarning yana bir ko'lamli yo'nalishidir. Ishlab chiqarish hajmlarining ortishi ko'pincha atmosfera va suv resurslarining ifloslanishi, chiqindilar miqdorining ko'payishi, tabiiy ekotizimlarga bosim kuchayishi bilan kechadi. Energiya ko'p talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlari va keng ko'lamli transport-logistika harakatlari karbonat angidrid chiqindilarini oshirib, iqlim o'zgarishi jarayonlarini tezlashtiradi. Agar mintaqa tabiiy resurslarga asoslangan eksport modelini tanlasa, u holda resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiya qilinishi ekologik muvozanatning buzilishiga va uzoq muddatli rivojlanishga tahdid tug'dirishi mumkin.

Eksportning salbiy ijtimoiy ta'siri sifatida daromadlar notengligining kuchayishi ham kuzatiladi. Eksport sohasida band bo'lgan yuqori malakali kadrlar nisbatan yuqori ish haqi oladi, ular uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'ladi, biroq past malakali xodimlar yoki eksportga aloqador bo'lmagan sohalarda ishlovchilar bundan foyda ko'rmaydi. Natijada daromadlar tafovuti kengayib, ijtimoiy tengsizlik va norozilik kuchayadi. Eksport korxonalari joylashgan hududlarda infratuzilma va xizmatlar jadal rivojlanishi mumkin, biroq boshqa hududlar rivojlanishdan orqada qolib, mintaqada ichida iqtisodiy differensial kuchayadi. Bu esa uzoq muddatda ijtimoiy barqarorlik va hududlararo tenglik uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Eksportni muvozanatli rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv o'sishini ta'minlashda asosiy strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda eksport faoliyatini ichki bozor rivoji bilan uyg'unlashtirish, ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslanish, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish hamda kichik va o'rta biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Mintaqalar eksportni kengaytirish bilan birga ichki iste'molni rag'batlantirish, mahalliy bozorni rivojlantirish va iqtisodiy muvozanatni saqlashga intilishi lozim. Ichki bozorning kuchli bo'lishi eksport ulushi pasaygan sharoitlarda iqtisodiy himoya mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, import o'rnini bosuvchi tarmoqlarni rivojlantirish mintaqaga o'z ehtiyojlarini ichki ishlab chiqarish orqali qondirish imkonini berib, tashqi bozorlarga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytiradi va iqtisodiy mustaqillikni kuchaytiradi.

Eksportni barqaror rivojlantirishda ekologik omillarni hisobga olish zarur. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, energiya tejamkor, chiqindilarni kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va resurslarni oqilona boshqarish eksportning ekologik barqaror modelini shakllantiradi. Xalqaro ekologik standartlar va tegishli sertifikatlarni qo'lga kiritish mintaqaning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi, chunki ko'plab davlatlar ekologik toza va ijtimoiy mas'uliyat bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ustunlik berishadi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni himoya qiladi, balki eksport mahsulotlari qiymatini oshiradi va yangi bozorlarni ochadi.

Eksportni rivojlantirishda inson kapitali sifatining oshishi ham strategik ahamiyatga ega. Mintaqalarda eksportchi korxonalar ehtiyojlariga moslashtirilgan professional ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalari bilan korxonalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv modellarini joriy etish zarur. Bozor va texnologiyalar tez o'zgarishi sababli uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash tizimlari faoliyatini yo'lga qo'yish xodimlarning zamonaviy talablar bilan uyg'un malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bu jarayon eksport sektori samaradorligini oshiradi va mintaqaning bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tishini tezlashtiradi.

Eksportning barqaror rivojlanishida kichik va o'rta biznesning o'рни katta. Ular innovatsiyalar manbai, tarmoqlararo kooperatsiya bo'g'ini va mintaqaning



iqtisodiy diversifikatsiyasini ta'minlovchi muhim subyektlardir. Shuning uchun kichik biznesning xalqaro bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash, maxsus grant dasturlari, eksport kreditlari, subsidiyalar, marketing bo'yicha maslahatlar va logistika yordamini ko'rsatish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat eksport hajmining o'sishiga, balki iqtisodiy tizimning ichki barqarorligi va moslashuvchanligining ortishiga yordam beradi.

Xulosa. Eksportni rivojlantirish mintaqa iqtisodiyotiga keng qamrovli va chuqur ta'sir ko'rsatadi. Valyuta tushumlari, ish o'rinlarini yaratish, texnologik taraqqiyot, infratuzilma rivojlanishi va daromadlarning oshishi eksportning asosiy ijobiy natijalari hisoblanadi. Biroq, tashqi bozorlarga haddan tashqari bog'liqlik, ekologik muammolar va ijtimoiy tengsizlik kabi salbiy oqibatlar ham mavjud.

Muvaffaqiyatli mintaqalar eksport va ichki bozor o'rtasida muvozanatni saqlaydi, barqaror rivojlanish prinsiplarini qo'llaydi va keng qamrovli ta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Eksportni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va mahalliy jamoalarni rivojlantirishga e'tibor berish uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va aholining farovonligini ta'minlaydi.

Mintaqalar o'z raqobat ustunliklarini aniqlab, ularni to'g'ri yo'naltira olsalar va davlat qo'llab-quvvatlashi bilan eksport potentsialini to'liq ro'yobga chiqarsalar, eksport haqiqatan ham mintaqa iqtisodiyotining asosiy dvigateliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arslonbek Nurjanov, Fozil Xolmurotov, Ergash Ibadullaev, Jasurbek Ataniyazov, Manzura Masharipova, Feruza Yusupova and Xolilla Xolmurotov (2025). The impact of renewable energy consumption on export performance in Uzbekistan: A vector autoregression approach. *Environmental Economics*, 16(2), 186-198.

2. Yulduz, Y., Xolilla, X., Fozil, X., Xosiyat, M., Gulnoza, Z., Zilola, A., & Komil, S. (2025). Impact of Energy Consumption on Agricultural Economics in Uzbekistan: An ARDL Approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 15(3), 138-145.

3. Halmurotov, G., Madraximov, Q., Zakirova, G., Xolmurotov, X., Djumabayeva, S., Yaqubova, Y., & Xolmurotov, F. (2025). The Impact of Energy Consumption and Trade Openness on Economic Growth in Uzbekistan: A Vecm Approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 15(2), 23-31.

4. Xolmurotov, F. (2025). RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH VA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQAVIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(1), 106-118.

5. Xolmurotov, F. (2024). EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 157-162.

